

YENISEY BITIGLARI: MATNLARNING O‘QILISHI VA TALQINI MASALASI

Toxir Xamzayev Saparovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrası

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Sibirning Oltoy o‘lkasi, Yenisey, Kama daryolari tevarigidan topilgan ko‘k turk yozuvli toshbitiglar fanda “Yenisey bitiglari” nomi bilan yuritiladi. Qadimgi turk monumental matnlari ichida yenisey bitiglarining tuzilishi va uslubi butunlay boshqacha. Ular alohida bir adabiy maktabning mahsuli hisoblanib, Urxun bitiglari singari yirik-yirik emas, kattasi o‘n olti-o‘n yetti satri. Shunday bo‘lsada, til va poetik xususiyati ahamiyatiga ko‘ra muhim sanaladi. Yana bir qiziq jihati, Urxun bitiglaridan farqli o‘laroq, ushbu bitiglarda ko‘pincha matn o‘liklar tilidan so‘zlanadi. To‘g‘ri ularni marhumning o‘g‘il-qizi otasining o‘limidan keyin yozdirgan. Bu holat matnning poetik ta‘sirini oshirishga xizmat qilgan.

Tosh va yozma badiiy bitiglarining topilishi turkiy adabiyot tarixida yangi davrni boshlab berdi. Markaziy Osiyoga arablarning kelishiga qadar yaratilgan yozma adabiyotni o‘rganishda Urxun va Yenisey daryolari yoqasidan topilgan tosh bitiglar alohida ahamiyatga ega. Turkiy xalqlarning bu adabiy-tarixiy yodgorliklari VI-VIII asrlarga oid bo‘lib, ular turk runiy yozuvlari deb yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yenisey bitiglari, Urxun bitiglari, runik yozuv, V.V. Radlov, V. Tomsen, S.E. Malov, Q. Sodiqov, ko‘k turk yozuvi genezisi, sonning ifodalanishi, fonetik jufti bor harflar, qo‘sh undoshni ifodalovchi harflar, yettinchi kelishik, singarmonizm, yig‘i janri.

TASHQI KO‘RINISHIDAN GOT (QADIMGI GERMAN) YOZUVIGA O‘XSHASH BO‘LGANLIGI UCHUN “RUNIK YOZUV” DEB HAM ATALGAN. URXUN-YENISEY YOZUVI HAQIDA DASTLAB XVIII ASRNING BOSHLARIDA RUS OLIMI S. REMEZOV, KEYINROQ SHVED OLIMI F. STRALEMBERG HAMDA NEMIS OLIMI D.G. MESSERSHMIDTLAR XABAR BERGAN. BU YOZUVLARNING TURKIY XALQLARGA MANSUBLIGINI BIRINCHI MARTA FRANSUZ OLIMI J.P. ABELREMYUZA (1820), SO‘NGRA RUS OLIMI N.M. YADRINSEV (1889) ISBOTLAGAN. 1890- YIL N.M. YADRINSEV VA 1891-YIL V.V. RADLOV RAHBARLIGIDA URXUN DARYOSI BO‘YIGA UYUSHTIRILGAN ARXEOLGIK EKSPEDITSIYALAR NATIJASI SIFATIDA 1892-YIL 2 TA ATLAS E‘LON QILINDI. BU ATLASLARDA BOSILGAN URXUN-YENISEY YOZUVI MATNLARINI BIRINCHI BO‘LIB DANIALIK TILSHUNOS V. TOMSEN O‘QISHGA MUVAFFAQ BO‘LGAN. TOMSENDAN SO‘NG RADLOV TURK

SHAHZODASI KULTEGIN (VIII ASR) XOTIRASIGA BITILGAN ULKAN TOSHDAGI MATNING TRANSLITERATSIYA VA TRANSKRIPSIYASINI TUZIB, NEMIS TILIGA TARJIMA QILDI. BU MATERIAL QADIMGI TURKIY TIL QURILISHI, FONETIKASI, MORFOLOGIYASI VA LEKSIKASI YUZASIDAN DASTLABKI TASAVVURNI SHAKLLANTIRDI [1].

Bu borada salmoqli ishlar S. Y. Malov ulushiga to‘g‘ri keladi. Olim yodgorliklarning tili, tarixi va ma‘no jihatlarini tadqiq etgan. Shu o‘rinda Malovning quyidagi fikrlarini eslab o‘tish joiz: “Mening maqsadim Yenisey yodgorliklari tarjimasini yangilari bilan almashtirish. Men qo‘limdan kelganicha qildim. Undan ham yaxshirog‘ini qila oladiganlar qilsin. Qilinadigan ishlar xali juda ko‘p” [2, 3]. Yodgorliklarni tadqiq qilish va ommaga yetkazish biz sharqshunoslarning asosiy vazifalarimizdan biridir.

Yenisey bitiglaridagi matnlar o‘ngdan chapga yoziladi. Yozuvlarda tinish belgilari mavjud emas. So‘zlarni, ba‘zan so‘z birikmalarini bir-biridan ajratish uchun ular o‘rtasiga ikki nuqta (:) qo‘yilgan. Undosh harflarning fonetik juftlari (barchasida emas), qo‘sh undoshni bildiruvchi shakllari, shuningdek yo‘g‘on va ingichka variantini ajratib ko‘rsatmaydigan harflari mavjud. Unli tovushlar esa yozuvda ayrim hollarda yoziladi, ayrim hollarda esa yozilmaydi. Muhim belgilaridan biri, unliharflar, asosan, birinchi bo‘g‘inda yoziladi. Singarmonizm qonuniga ko‘ra keyingi bo‘g‘inda hosil bo‘luvchi unliharflar yozilmaydi. Bitiglarda hozirgi o‘zbek tilidan farqli ravishda, yettinchi kelishik-vosita kelishigi (*bilan*) ham qo‘llanilgan.

Qadimgi turkiy bitiglarda Birinchi va Ikkinchi turk xoqonliklari davrida (VI-VIII yuzyilliklar) yashagan turkiy xalqlar “ko‘k turklar” deb atalgan. Ushbu atamadagi “ko‘k” sifati “rang” (ko‘k, zangori rang) emas, balki “ildiz, asl,tub” anglamidadir. Bitiglardagi otidan kelib, hozirgi zamon turkshunosligida qadimgi turk davlatlarini “ko‘k turk xoqonliklari”, ular qo‘llagan yozuvni “ko‘k turk alifbosi”, adabiyotini “ko‘k turk adabiyoti” deb atalmoqda [3, 4].

Ko‘k turk xatida harflar ulanmay, ayri-ayri yozilgan. Ko‘k turk matnlaridagi harflar soni 38-40 ta atrofida (ayrim matnlarda bundan ham ortiq). Aksariyat turkologlarning fikricha ko‘k turk xatida ayrim ideografik belgilarni kuzatish ham mumkin. Masalan, “y” (D) harfining genezisi “ay”-oy so‘zi bilan bog‘liq. Ya‘ni oying ko‘rinishini nazarda tutib, ushbu harfni yaratganlar deb faraz qilish mumkin. Shuningdek, “oq” (↓↑) harfi “o‘q”ning ko‘rinishida, “t”(⋈) esa “tom”ning ko‘rinishida shakllangan bo‘lishi mumkin.

Yenisey bitiglarida, urxun bitiglaridan farqli ravishda, Ӏ Ӓ harflari qo‘llanilgan. Bu harflar o‘rniga ko‘ra *a, ä, e, i, i* tovushlarini ifodalagan.

Yodgorliklarda hozirgi kunda qo‘llaniladigan turkiy so‘zlarning tovush o‘zgarish hodisasini ham ko‘rish mumkin (*biñ-ming, bänü-mangu; qudi-quyi, edgü-ezgu; qon-qo‘y; qağun-qavun* kabi). Yenisey bitiglarida uchraydigan ayrim so‘zlarda “B” tovushi hozirgi o‘zbek tilidagi “M” tovushi bilan talaffuz qilinadi va yoziladi:

bun(u)suz ulgʻatim bun bu ärmiş [2, 22].

bunusuz ärdä bän ärdim [2, 21].

Matndagi *bun* soʻzini hozirgi **munqli** soʻzining oʻzagi, *bän* soʻzi esa men (man) soʻzining dastlabki qoʻllanilgan varianti ekanligini koʻrish mumkin.

Hozirda ishlatiladigan “Y” harfi esa ayrim soʻzlarda “D” harfi bilan ifodalangan: *quyida qunchuyimğaqa (!) özdä (!) oğlimqa adrıldim* [2, 22].

Yenisey yodgorliklari tilidagi oʻziga xos xususiyatlardan biri shundaki, matn oʻlik tilidan bayon qilinadi. Yaʼni matnni yozdirgan shaxs, vafot etgan shaxsning nomidan “men toʻymadim, men ayrıldim, 13 yoshimda” deb aytadi. Aslida bu fikrlar vafot etgan shaxsning yaqinlari (oʻgʻli, qizi va boshqalar) tomonidan yozilgan.

Sonning ifodalanishi ham hozirgi oʻzbek tilidan biroz farqli. Yaʼni oʻn uch (13) soni – “*üç yägirmi*” deb keltiriladi. Hozirgi kunda sonni ifodalashda avval oʻnlik son keyin birlik son aytilsa, Yenisey yodgorliklarida esa buning aksi, yaʼni avval birlik son soʻngra oʻnlik son ifodalangan holatlarni ham kuzatish mumkin. Barliq (birinchi) yodgorligida quyidagi jummalarni koʻrish mumkin: *öz yigin alp-turan altı baq bodunda üç yägirmi (yaşimka) adirıldim* [2, 20-21]. Elegesh yodgorligida ham son ifodalanishiga doir misol uchraydi: “*kört äl qan al(p) uruñu altunliğ käşig bälimkä bantim yärdä älim toquz qırq yaşim(da)*” [2, 25]. Bu yerda esa oʻttiz toʻqqiz (39) soni *toquz qırq* deb ifodalanmoqda.

Badiiylikni taʼminlash, taʼsirchanlikni oshirish maqsadida (koʻp hollarda gap oxirida) soʻz oxirida “-a” yuklamasi keladi:

Quyidaqi qunchuyimğa adirıldim apam-a [2, 21].

Matnlarda badiiy uslub elementlari sezilib turadi. Xususan ayrim soʻzlar bilan ularning izohlovchi, sifatlovchi, epitetlari bilan keltirilgan. Bu kabi ifoda asosan badiiy boʻyoq berish maqsadida qilinadi:

Tänridäki künkä yärdäki älimkä bökmädim [2, 22] -Osmondagi quyoshga, yerdagi elimga toʻymadim.

qara bodunum qatiğlanin äl törüsü idmiş (idman) yitä siz älim qanım [2, 25]- Oddiy (qora) xalqim qattiq (bardam) boʻling...

Yodgorliklardagi ayrim iboralarni tushunish qiyin. Ammo, hozirgi kunda turkiy qavmlarda qoʻllaniladigan ayrim iboralarning maʼnosidan kelib chiqqan holda ularni izohlash mumkin. Misol tariqasida Elegesh yodgorligidan namuna keltiramiz: *tört adaq(liq) yilqim säkiz adaqliğ barimim bunim yök ärdim* [2, 25] – Toʻrt oyoqliq va **sakkiz oyoqliq** yilqim bor edi, mungim (qaygʻuyim) yoʻq edi. Bu matndagi **sakkiz oyoqliq yilqi** iborasi tushunarsizdek tuyuladi. S. Y. Malov bu iborani qozoq xalq maqoli orqali izohlagan. Yaʼni “toʻq otning sakkiz oyogʻi boʻladi” maqolidan kelib chiqqan holda **toʻq yilqi** deb tarjima qiladi.

Yenisey yodgorliklarida soʻzlarning ifodalanishida singarmonizm qoidasiga amal qilingan. Yaʼni soʻzdagi tovushlarning hamda qoʻshimchalarning talaffuziga koʻra bir-biriga moslashgan. Singarmonizm hodisasida unli va undoshlar tanglay, lab, jaranglilik va jarangsizlik xususiyatlariga koʻra bir-biriga moslashadi.

Tanglay uygʻunligi: soʻzdagi (unli) tovushlarning bir-biriga va qoʻshimchalarning oʻzakka qatorda va qalin-ingichkalikda moslashuvi. Mazkur qonunga koʻra oʻzak-negizga qoʻshiladigan affiksalar ham fonetik variantlardan iborat boʻladi: *qapig*-eshik, *bilig*-bilim, *qaganqa*-xoqonga, *ebka*-uyga, *oguzgaru*-oʻgʻuzga, *ilguru*-oldinga (Sharqqa).

Lab uygʻunligi: birinchi boʻgʻindagi unliga keyingi boʻgʻindagi unlining yoki oʻzakning oxirgi boʻgʻinidagi unliga qoʻshimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvi: *elimiz*-davlatimiz, *sümü**z*-lashkarimiz, *atim*-otim, *bodunum*-xalqim.

Undoshlardagi jaranglilik va jarangsizlik uygʻunligi. Mazkur qonunga muvofiq oʻzak-negiz jarangsiz undosh bilan tugasa, qoʻshimchani birinchi tovushi ham shunga moslashadi, yaʼni jarangsiz undoshli boʻladi: *otqa*-olovga, *tilakkü*-tilakka. Oʻzak-negiz unli tovush, jarangli yoki sonor bilan tugagan boʻlsa, unda affiksning jarangli undosh bilan boshlanuvchi varianti qoʻshiladi: *yulguç*-ombir, *barduq*-borgan [4, 124-125].

Yenisey yodgorliklaridan singarmonizm hodisasi uchun namunalar: *tör apa içräki bän bäs yägirmi yaşda alinmişim qunçuyima buna adirildima sizimä kün ay azidima, üç oğlima adirildima yita bökmädimä qatiğlanğil [2,29].*

Xulosa qilib aytganda, Yenisey bitiglarini tili hozirgi til normalaridan, ayrim jihatlarga koʻra, ancha mukammal boʻlgan. Buni ayniqsa, singarmonizm qoidasiga amal qilinganligida koʻrish mumkin. Tovushlarni ifodalash uchun harflarning koʻpligi ham ustun jihatlari sirasiga kiradi. Matnlarda nasriy usulda bitilganligiga qaramay badiiylikni ifodalovchi xususiyatlar (asosan yigʻi janri) sezilib turadi. Yenisey bitiglarini, hozirgi kunda qoʻllaniladigan ayrim turkiy soʻzlardagi tovushlarning dastlabki vaqtlarda qaysi tovush bilan ifodalanganini bilish uchun muhim manbalardandir. Oʻnlik sonlarni ifodalashda, avval birlik son, keyin shu son qoʻshilgan oʻnlik emas, balki undan yuqori oʻnlik aytilgan. Koʻk turk xati ideografik belgilar asosida yuzaga kelgan boʻlishi mumkin. Yaʼni, koʻk turklarning oʻzlari tomonidan oʻylab topilgan. Matnlarda tinish belgilarining yoʻqligi va yozuv oʻngdan chapga yozilganligi koʻk turk yozuvining oʻziga xos xususiyatidir. Yenisey va Urxun bitiglarini nafaqat til tarixini, balki millatdoshlarimiz boʻlgan qozoq, qirgʻiz, uygʻur, tatar va boshqa turkiy elatlarning toponimiyasini, adabiyotini va madaniyatini oʻrganish uchun ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Urхun-Yenisey_yozuvi.
2. Малов С. Е. Енисейская письменность тюрков. М.-Л., 1952.
3. Содиқов Қ. Эски туркий битиглар. Тошкент, 2009.
4. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Тошкент, 2006.
5. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Тошкент, 2021.
6. Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Тошкент, 2004.
7. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент, 1982.
8. Аманжолов А. С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003.
9. Древнетюркский словарь. Ленинград, 1969.
10. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, 1965.
11. Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М.-Л., 1951.
12. Қаюмов А. Қадимият обидалари. Тошкент, 1972.